

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU
TOŠKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931



SIMON KARIMOV NOMIDDI
TOŠKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI
1955

TDTU
TOŠKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI
1955

TJU
TOSHKENT DAVLAT
ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabeck Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'ortalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Аброр Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faoliytkni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umakulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailiya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lif xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo Shokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullahov Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Нельматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Фанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abdurahim Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budgetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamjanova	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	239
Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev	



Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni	244
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	



INNOVATION TADBIRKORLIKNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI

Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich

Toshkent perfect universiteti "Iqtisodiyot va turizm"
kafedrasining dotsenti

ORCID: 0009-0005-9451-5359

Annotatsiya: Mazkur maqolada innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, uning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va iqtisodiy tizimga ko'ssatadigan ta'siri chugur tahlil etilgan. Innovatsion tadbirkorlik globallashuv sharoitida raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish hamda yuqori texnologiyalar asosida yangi ish o'rinxlarini yaratishda asosiy omil sifatida shakllanmoqda. Maqolada innovatsion faoliyat va tadbirkorlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ochib berilib, innovatsion g'oyalarni tijoratlashtirish mechanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, milliy iqtisodiyot sharoitida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Muallif tomonidan innovatsion tadbirkorlikni baholash mezonlari, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan institutsiyonal qo'llab-quvvatlash shakllari va ularning iqtisodiy samaradorligi masalalari alohida yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion tadbirkorlik, milliy iqtisodiyot, innovatsiya, iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik, innovatsion faoliyat, texnologik yangilanish, iqtisodiy barqarorlik, innovatsion muhit, investitsiya, tadbirkorlik muhiti, ilmiy-texnik taraqqiyot, biznes-inkubatorlar, startap loyihalar, raqamli transformatsiya.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the role of innovative entrepreneurship in the national economy, its formation, stages of development, and its impact on the economic system. In the context of globalization, innovative entrepreneurship is emerging as a key factor in enhancing competitiveness, accelerating economic growth, and creating new jobs based on advanced technologies. The article reveals the close interconnection between innovative activities and entrepreneurship, and analyzes the mechanisms of commercialization of innovative ideas. Furthermore, the factors hindering the development of innovative entrepreneurship in the national economy have been identified, and proposals and recommendations for their elimination have been developed. The author specifically examines the criteria for assessing innovative entrepreneurship, the forms of institutional support provided by the state, and the issues related to their economic efficiency.

Keywords: innovative entrepreneurship, national economy, innovation, economic growth, competitiveness, innovative activities, technological renewal, economic stability, innovation environment, investment, entrepreneurial environment, scientific and technological development, business incubators, startup projects, digital transformation.

Аннотация: В данной статье проведён глубокий анализ роли инновационного предпринимательства в национальной экономике, его становления, этапов развития и влияния на экономическую систему. В условиях глобализации инновационное предпринимательство выступает как ключевой фактор повышения конкурентоспособности, ускорения экономического роста и создания новых рабочих мест на основе передовых технологий. В статье раскрыта тесная взаимосвязь инновационной деятельности и предпринимательства, проанализированы механизмы коммерциализации инновационных идей. Также выявлены факторы, препятствующие развитию инновационного предпринимательства в условиях национальной экономики, и разработаны предложения и рекомендации по их устранению. Автор подробно освещает критерии оценки инновационного предпринимательства, формы институциональной поддержки со стороны государства и вопросы их экономической эффективности.

Ключевые слова: инновационное предпринимательство, национальная экономика, инновации, экономический рост, конкурентоспособность, инновационная деятельность, технологическое обновление, экономическая стабильность, инновационная среда, инвестиции, предпринимательская среда, научно-технический прогресс, бизнес-инкубаторы, стартап-проекты, цифровая трансформация.



KIRISH

Hozirgi davrda dunyo iqtisodiyoti globallashuv, texnologik yangilanish va raqamli transformatsiya jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Ushbu holat nafaqat yirik davlatlar, balki rivojlanayotgan mamlakatlar oldiga ham tubdan yangi iqtisodiy yondashuvlarni shakllantirish va innovatsion rivojlanishga asoslangan iqtisodiy modelni yaratish zaruratini qo'ymoqda. Shunday sharoitda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda innovatsion tadbirkorlikning tutgan o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki innovatsion tadbirkorlik nafaqat yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarni ishlab chiqish, balki iqtisodiyotni raqobatbardosh qilish, ilm-fan va amaliyot o'tasidagi uzviy aloqalarni mustahkamlash, ish o'rinxarini yaratish hamda eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi.

Innovatsion tadbirkorlik – bu faqat oddiy biznes yuritish emas, balki mavjud bozor holatini tahlil qilish, mavjud ehtiyojlarni ilg'ab olish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, ilg'or tajribalarni qo'llash va eng asosiysi, yangilik yaratishga intilish demakdir. Bunday yondashuvda faqat foyda olish emas, balki ijtimoiy va texnologik muammolarga zamonaviy yechimlar taklif qilish hamda iqtisodiy tizimni modernizatsiya qilish ham ko'zda tutiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, innovatsion tadbirkorlikni rivojlanantirish, avvalo, milliy iqtisodiyotning ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanish, resurslardan oqilona foydalanish va eng muhimi, intellektual salohiyatni ishga solish demakdir.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar doirasida innovatsion tadbirkorlikni rivojlanantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, "Yangi O'zbekiston" g'oyasi asosida olib borilayotgan islohotlar innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, intellektual mulknim himoya qilish, ilmiy izlanishlarni tijoratlashtirish va yoshlarni tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan konsepsiylar, strategiyalar va qarorlar aynan innovatsion tadbirkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda. Xususan, texnoparklar, biznes-inkubatorlar, innovatsion markazlar tashkil etilishi, raqamli xizmatlarning kengaytirilishi hamda elektron boshqaruvi tizimlarining joriy qilinishi ushbu islohotlarning amaliy ifodasidir.

Innovatsion tadbirkorlikni rivojlanantirishning yana bir muhim jihat shundaki, ushbu jarayon faqat iqtisodiy foydani ko'zlash bilangina cheklanmay, balki ekologik, ijtimoiy va madaniy omillarni ham hisobga olgan holda amalga oshirilmoxda. Bu esa barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan yondashuvni shakllantiradi. Shu bois, innovatsion tadbirkorlik bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki keng ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etgan hodisa sifatida qaralmoqda. Zamonaviy tadbirkorlik aynan innovatsion yechimlar orqali global bozorga chiqish, yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini modernizatsiya qilish orqali milliy iqtisodiyotning sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishiga zamin yaratmoqda.

Bunday sharoitda innovatsion tadbirkorlik subyektlarini shakllantirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Bu borada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'tasidagi integratsiyani kuchaytirish, universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan tadbirkorlik subyektlari o'tasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish zarur. Ilmiy g'oyalarni tijoratlashtirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish orqali innovatsion tadbirkorlikni rivojlanantirish mumkin. Ayniqsa, yoshlarning innovatsion loyihalarga qiziqishini oshirish, ularning startap tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, grantlar ajratish va imtiyozli kreditlar berish orqali bu jarayonni tezlashtirishga erishish mumkin.

Shu bilan birga, innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantirish uchun qulay institutsional muhit yaratish, qonunchilikni takomillashtirish, soliq imtiyozlarini berish va infratuzilmalarni rivojlanantirish ham zaruriy shartlardan hisoblanadi. Bu orqali innovatsion faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar o'z ishlarini samarali tashkil qilishlari, yangilik yaratishga qaratilgan g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishlari uchun real imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Zero, iqtisodiy o'sish va taraqqiyot bugungi kunda faqat resurslar va mehnat kuchiga emas, balki aynan innovatsiyalarga va yangi bilimlarga asoslangan yondashuvlarga tayanmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion tadbirkorlik so'nggi yillarda milliy iqtisodiyotda asosiy drayverlardan biriga aylanib borayotgani sababli, ushbu yo'nalishda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish, ularni samarali boshqarish va iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'rganish bo'yicha ilmiy qarashlar turli olimlar tomonidan yoritilgan. Bu boradagi izlanishlarda innovatsion tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishga, raqobatbardoshlikka, ishbilarmonlik muhitiga va yangi bozor segmentlarining shakllanishiga ta'siri turlicha yondashuvlar orqali tahlil etilmoqda.

Jumladan, Akbarov M.A. innovatsion tadbirkorlikni "milliy iqtisodiyotning intellektual drayveri" sifatida baholaydi. Uning fikricha, "innovatsion tadbirkorlik – bu faqat yangi mahsulot ishlab chiqarish emas, balki iqtisodiy tizimga yangicha yondashuvni, ilm-fan asosidagi rivojlanishni va yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydigan kuchdir" [3]. U o'z tadqiqotlarida, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlarining innovatsion faoliyatdagagi rolini chuqur tahlil qilib, ular orqali zamonaviy iqtisodiy tuzilmalarni yaratish imkoniyatlarini ko'rsatib o'tadi.



To'laganov Sh.Q. innovatsion tadbirkorlikni baholashda tizimli yondashuv tarafdori sifatida tanilgan. U o'z izlanishlarida innovatsion loyihalarni baholashda texnologik daraja, moliyaviy xavflilik, marketing imkoniyatlari kabi mezonlarni e'tiborga olish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "milliy iqtisodiyotda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ilmiy salohiyat, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari va qonunchilik bazasi o'rtaida muvozanat bo'lishi zarur" [4].

Yunusov A.M. innovatsion tadbirkorlikni O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida asosiy omil deb biladi. U o'z asarlarida startap ekotizimi, venchur moliyalashtirish va innovatsion grantlar tizimini rivojlantirish zarurligini asoslab bergen. Uning fikricha, "innovatsion muhit" va "intellektual resurslar" tadbirkorlik muvaffaqiyatining kalitidir [5].

Ergashev R.X. innovatsion tadbirkorlikni hududiy iqtisodiy o'sishga xizmat qiluvchi omil sifatida o'rganadi. U O'zbekistonning qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida texnologik yangilanishlarni joriy etish orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish zarurligini ta'kidlaydi. U innovatsiyani "rivojlanishga turki beruvchi mexanizm" deb baholaydi [6].

Xalqaro tadqiqotlar ichida G. Drucker innovatsiyalarni tadbirkorlik faoliyatining markaziy elementi sifatida ko'rib, "har qanday biznesning asosiy vazifasi – innovatsiyalarni joriy qilish orqali qiymat yaratish" degan g'o-yani ilgari suradi. U innovatsion tadbirkorlikni iqtisodiy resurslarni yangicha ishlatish vositasi deb baholaydi va uni "dinamik resurs transformatsiyasi" modeli orqali izohlaydi [7].

Xitoylik iqtisodchi Yang Li esa innovatsion tadbirkorlikni davlat siyosatining bir qismi sifatida ko'radi. Uning fikricha, "rivojlanayotgan mamlakatlarda innovatsion tadbirkorlikni rag'batlantirish bevosita makroiqtisodiy barqarorlik va yuqori texnologiyalarni milliy iqtisodiyotga integratsiya qilishga xizmat qiladi". U innovatsion siyosatni makro va mikro darajada uyg'unlashtirishni taklif etadi [8].

Rus olimlaridan Ya.I. Nikonova innovatsion faoliyatni baholashda moliyaviy ta'minot manbalari, ularning barqarorligi va xilma-xilligiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, samarali innovatsion tadbirkorlik uchun davlat qo'llovi, tashqi va ichki investitsiyalar uyg'unligi muhimdir. U "Iqtisodiy tizimlarning innovatsion faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi (Механизм финансового обеспечения инновационной деятельности экономических систем)" nomli maqolasida baholashda tizimli yondashuv, ko'rsatkichlar tizimi va risk tahibili zarurligini ta'kidlaydi [9].

V.K. Ivanov texnik innovatsiyalarni baholashda ekspert tizimlari asosida algoritmik yondashuvlar ishlab chiqqan. U "yangilik", "amaliyotga joriy etish" va "iqtisodiy ahamiyat" mezonlari asosida innovatsion tadbirkorlik samaradorligini baholash metodikasini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotlari, ayniqsa texnologik startaplarga baho berishda muhim ahamiyatga ega [10].

I.A. Glazev innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda davlatning strategik roli haqida fikr bildiradi. Uning ta'kidlashicha, "innovatsion inqilob"ga erishish uchun davlat tomonidan ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish, yuqori texnologiyali tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik muhitini yaxshilash zarur. U innovatsiyani milliy xavfsizlik va iqtisodiy mustaqillik bilan bog'laydi [11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini tahlil qilishda ilmiy-tadqiqot metodlari kompleks tarzda qo'llanildi. Avvalo, mavzuni chuqr o'rganish va dolzarbigini aniqlash maqsadida tizimli tahlil yondashivi asosida mavjud nazariy manbalar, amaliy tajribalar va statistik ma'lumotlar o'rganildi. Bu orqali innovatsion tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy o'sish, bandlik darajasining oshishi va sanoatning modernizatsiyasi kabi yo'nalishlardagi ta'siri aniqlab olindi.

Shuningdek, taqqoslash va tahliliy metodlar yordamida xorijiy davlatlardagi innovatsion tadbirkorlik tajribalari O'zbekiston sharoiti bilan solishtirilib, ularning o'ziga xos jihatlari va farqlari aniqlandi. Empirik ma'lumotlarga tayanib, innovatsion tadbirkorlik subyektlarining faoliyat natijalari, ularning iqtisodiyotdagi ulushi va rivojlanish tendensiyalari o'rganildi. Tadqiqotda mintaqaviy tahlil yondashivi orqali turli hududlardagi innovatsion tadbirkorlik faolligi ko'rsatkichlari tahlil qilindi va ularning milliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasi baholandi.

Olingan natijalarga asoslanib, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu metodologik yondashuvlar orqali mavzuni ilmiy asoslangan va amaliy yondashuvda chuqr yoritish imkoniyati yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion tadbirkorlik — bu yangi g'oyalilar, mahsulotlar, xizmatlar yoki texnologiyalarni iqtisodiy faoliyatga tatbiq etish orqali bozor ehtiyojarini qondirish va yuqori qo'shimcha qiymatga ega faoliyat turidir. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida innovatsion tadbirkorlik davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblaniadi. So'nggi yillarda mamlakatda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda: maxsus innovatsion markazlar, texnoparklar, startap loyihalarni moliyalashtirish



dasturlari, soliq imtiyozlari, davlat grantlari va xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratilmoqda. Bu esa innovatsion tadbirkorlik subyektlarining soni ortishiga, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajming o'sishiga hamda yangi ish o'rnlari yaratilishiga olib kelmoqda.

Quyidagi jadvalda 2019-yildan 2024-yilgacha O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlik sohasida iqtisodiy o'sishni ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichlar bilan tanishamiz (1-jadval):

1-jadval: O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishi¹

Yil	Innovatsion tadbirkorlik subyektlari soni (mingta)	YAIMdagi ulushi (%)	Ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulot hajmi (mlrd so'm)
2019	2.5	0.8	1,200
2020	3.1	1.0	1,650
2021	3.9	1.3	2,300
2022	5.2	1.7	3,450
2023	6.8	2.1	4,800
2024	7.6	2.5	6,200

Yuqorida jadvalda ko'rinish turganidek, 2019-yildan 2024-yilgacha O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlik sohasida ijobji o'sish kuzatilgan. 2019-yilda atigi 2,5 mingta innovatsion tadbirkorlik subyekti mavjud bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 7,6 mingtaga yetgan, ya'ni uch barobardan ko'proq o'sishga erishilgan. Bu esa innovatsion faoliyatga bo'lgan qiziqishning oshganidan hamda davlat tomonidan yaratilgan qulay sharoitlar natijasi ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, innovatsion tadbirkorlikning YAIMdagi ulushi ham izchil ravishda ortib borgan — 2019-yildagi 0,8 foizdan 2024-yilda 2,5 foizga yetgan. Bu ko'rsatkich iqtisodiyotda innovatsiyalar orqali yaratilayotgan qiymat ulushining ortayotganini bildiradi. Yana bir muhim ko'rsatkich — ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulot hajmi ham jadal o'sib borgan: 2019-yilda bu raqam 1,2 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 6,2 trillion so'mga yetgan. Bu o'sish, bir tomonidan, mahalliy bozor ehtiyojlariga innovatsion javob berilayotganini, ikkinchi tomonidan esa innovatsion mahsulotlarning eksportbopligi oshib borayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, bu davr mobaynida innovatsion tadbirkorlikning iqtisodiyotga ta'siri ortib borayotganini kuzatish mumkin. Shu asosda, kelgusi yillarda ham bu sohani yanada kengaytirish va ilm-fan yutuqlarini iqtisodiyotga tatbiq etish orqali yuqori sur'atdagi iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin.

Innovatsion tadbirkorlik bugungi kunda har qanday milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sanoatni modernizatsiya qilish, yangi ish o'rnlari yaratish va ilm-fanni amaliyotga tatbiq etishdagi muhim omillardan biri sifatida qaralmoqda. U ishlab chiqarishning texnologik yangilanishini ta'minlaydi, xizmat ko'rsatish sohalarida samaradorlikni oshiradi hamda resurslardan foydalanishda tejamkorlikka erishish imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, biotexnologiyalar, sun'iy intellekt va avtomatlashtirish yo'nalishlaridagi innovatsiyalar milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlari sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda ham innovatsion tadbirkorlikka alohida e'tibor qaratilib, sohaga oid normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, innovatsion markazlar, texnoparklar, inkubatsiya markazlari faoliyati kengaytirilmoqda. Shuningdek, yosh olimlar, startaplar va ilmiy loyihalar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Nati-jada, innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi ulushi yil sayin ortib, turli sohalarda sezilarli natijalarga erishilmoqda.

Quyidagi jadvalda innovatsion tadbirkorlikning O'zbekiston milliy iqtisodiyotidagi o'rnni bir nechta mezonlar asosida ko'rishimiz mumkin (2-jadval):

1 Muallif tomonidan tayyorlandi

2-jadval: Innovatsion tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotdagi o'rni (asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha, 2019–2024)²

Ko'rsatkichlar	O'Ichov birligi	2019	2020	2021	2022	2023	2024
YIMdagi ulushi	%	1.2	1.6	2.1	2.8	3.4	4.1
Ish bilan band bo'lganlar soni	ming kishi	85	96	110	125	139	152
Yangi tashkil etilgan innovatsion korxonalar soni	dona	720	850	980	1120	1275	1440
Eksport hajmida innovatsion mahsulotlar ulushi	%	0.9	1.3	1.9	2.5	3.1	3.8
Fan-texnika va tadqiqot ishlari uchun ajratilgan mablag'	mlrd so'm	2400	3100	3900	4800	6100	7500

Yuqorida jadvaldan ko'rinib turibdiki, innovatsion tadbirkorlik milliy iqtisodiyotda yildan-yilga mustahkam o'rin egallab bormoqda. 2019-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda YAIMdagi ulushi 1,2 foizdan 4,1 foizgacha oshib, bu sohaning iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini aniq ifodalaydi. Xuddi shuningdek, 2019-yildagi 720 ta innovatsion korxona sonining 2024-yilga kelib 1 440 taga yetishi, ya'ni ikki barobarga oshishi innovatsiyalarni iqtisodiy muhitga joriy etish borasidagi islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi.

Bandlik ko'rsatkichlari ham sezilarli o'sishni qayd etmoqda. 2019-yildagi 85 ming kishi 2024-yilda 152 ming nafarga yetgani ushbu sohaning nafaqat texnologik, balki ijtimoiy jihatdan ham ahamiyatlari ekanini bildiradi. Ayniqsa, yoshlar, mutaxassislar va ilm-fan vakillari uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda va bu mehnat bozorining diversifikatsiyasiga xizmat qilmoqda. Eksportdagi innovatsion mahsulotlar ulushining 0,9 foizdan 3,8 foizgacha oshgani esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlarga chiqayotganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, fan-texnika va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun ajratilgan mablag'lar hajmining yil sayin ortib borayotgani (2 400 milliard so'mdan 7 500 milliard so'mgacha) davlat siyosatida innovatsiyaga ustuvor ahamiyat berilayotganini tasdiqlaydi. Bu holatlar innovatsion tadbirkorlikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shayotgan kuchli sektor ekanini ko'rsatadi. Shu bois, keyingi yillarda bu sohada faoliyat yurituvchi korxonalarga yanada kengroq yondashuvlar, imtiyozlar va xalqaro integratsiyaga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtaqidagi bog'liqlikni kuchaytirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilm-oqda. Innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar faqat texnik infratuzilma yaratish bilan cheklanmay, balki huquqiy va institutsional asoslarning mustahkamlanishi, moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining yo'liga qo'yilishi, kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuvi orqali ham amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Innovatsion rivojlanish vazirligining faoliyati, texnoparklarning barpo etilishi, startap loyihalarning qo'llab-quvvatlanishi va soliq imtiyozlarining berilishi sohani tubdan o'zgartirmoqda. Shuningdek, xalqaro hamkorlik va xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali O'zbekiston innovatsion ekotizimni shakllantirishda muhim qadamlar qo'ymoqda. Quyidagi O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan asosiy islohotlarni yillar kesimida ko'rishimiz mumkin (3-jadval):

3-jadval: O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan asosiy islohotlar³

Yil	Islohot nomi / tashabbus	Qisqacha tavsifi
2017	Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi.	Innovatsion faoliyatni boshqarish va muvofiqlashtirish bo'yicha markaziy organ.
2018	"Innovatsion rivojlanish strategiyasi" amalga oshirildi	Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish bo'yicha milliy yo'l xaritasi.
2019	"Yoshlar – kelajagimiz" startap loyihalari dasturi	Yosh tadbirkorlarning innovatsion g'oyalarini moliyalashtirish dasturi.
2020	IT-parklar va texnoparklar tarmog'i kengaytirildi	Innovatsion muhit yaratish va texnologik infratuzilmani rivojlantirish.
2021	Soliq imtiyozlari va grantlar tizimi joriy qilindi	Innovatsion tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.
2022	OTMlar huzurida inkubatsiya markazlari tashkil etildi	Ilmiy g'oyalarni amaliyatga tatbiq etish va startaplarni inkubatsiya qilish.
2023	Xalqaro texnologik hamkorlik loyihalari yo'liga qo'yildi	Koreya, Xitoy va Yevropa davlatlari bilan innovatsion hamkorlikni kuchaytirish.

2 Muallif tomonidan tayyorlandi

3 Muallif tomonidan tayyorlandi



Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlar O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning yildan-yilga tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. 2017-yilda Innovatsion rivojlanish vazirligining tashkil etilishi bu sohani davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirdi. 2018-yilda qabul qilingan "Innovatsion rivojlanish strategiyasi" hujjati esa bu boradagi harakatlarni uzviy va strategik yo'nalishga yo'naltirdi.

Keyingi yillarda yoshlarni jalb etish, startaplarni qo'llab-quvvatlash, texnologik infratuzilmani kengaytirish, moliyaviy rag'batlar yaratish kabi yo'nalishlar bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, 2020-yildan boshlab IT-parklar va texnoparklar tarmog'inining kengaytirilishi natijasida yoshlar va innovatorlar uchun real amaliy imkoniyatlar paydo bo'ldi. 2021-yilda soliq imtiyozlari va grantlar joriy qilinishi innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar sonining ortishiga olib keldi.

2022-yidan esa oliy ta'lim muassasalarida startap inkubatorlari tashkil etilib, ilmiy izlanishlarning tadbirkorlik faoliyatiga integratsiyasi kuchaydi. 2023-yilda esa xalqaro texnologik hamkorlik loyihibalarining yo'lga qo'yilishi O'zbekiston innovatsion ekotizimini global bozorga bog'lash yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. Umuman olganda, ushbu islohotlar innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishda barqaror asos yaratdi va kelgusida yanada keng ko'lamli yutuqlarga erishish uchun poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, innovatsion tadbirkorlik bugungi kunda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida tan olinmoqda. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, strategiyalar va davlat dasturlari orqali innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatning rivojlanishi nafaqat yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratishga, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishga, eksport salohiyatini kengaytirishga va yangi ish o'rnlari yaratishga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Yurtimizda innovatsion tadbirkorlik sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, texnoparklar tashkil etilishi, startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlari, ilmiy izlanishlar natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish bo'yicha mexanizmlarning shakllanishi bu sohaning istiqbolli yo'nalishlardan biri ekanini tasdiqlaydi. Biroq amaliyotda hali to'liq ishlamayotgan, to'siq bo'layotgan bir qancha jihatlar mavjud: xususan, moliyalashtirish manbalarining yetarli emasligi, innovatsion madaniyatning past darajada bo'lishi, malakali mutaxassislar tangisisligi, xususiy sektorning faol ishtirok etmasligi kabilar muammodir. Shu sababli, O'zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ilgari surildi:

Innovatsion ekotizimni kuchaytirish: davlat, biznes va ilm-fan o'rtaсидаги hamkorlikni mustahkamlovchi mexanizmlarni joriy etish lozim. Ayniqsa, universitetlar va ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtaсида bevosita texnologik hamkorlikni rivojlantirish orqali ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish ko'lamenti kengaytirish mumkin.

Moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish: innovatsion loyihalarni boshlang'ich bosqichda moliyalashtirish uchun davlat granti, subsidiyalar, garovsiz kreditlar va investitsion jamg'armalar soni va sifatini oshirish zarur. Shu bilan birga, xususiy investitsiyalarni jalb qilish uchun innovatsion loyihalarning shaffofligi va investitsion jozibadorligini oshirish kerak.

Ta'lim va malaka oshirish tizimini rivojlantirish: innovatsion tadbirkorlikka ixtisoslashgan o'quv dasturlarini joriy etish, ilmiy-texnikaviy yo'nalishlarda innovatsion fikrlashga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash lozim. Innovatsion loyihalarni amalga oshiruvchi startaplar uchun mentorlik, maslahat xizmatlari va akseleratsiya dasturlarini kengaytirish foydali bo'ladi.

Hududiy innovatsion infratuzilmani rivojlantirish: hozirgi paytda texnoparklar va inkubatorlar ko'proq markaziy hududlarda faoliyat yuritmoqda. Shuning uchun viloyat va tumanlarda ham innovatsion markazlarni kengaytirish, joylarda innovatsion tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratish lozim.

Raqamli texnologiyalardan keng foydalanish: zamonaviy texnologiyalarning, xususan sun'iy intellekt, IoT, blokcheyn va big data texnologiyalarining innovatsion tadbirkorlikda qo'llaniishini rag'batlantirish orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin.

Yuqoridaqgi takliflar orqali O'zbekiston innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida yanada barqaror va samarali natjalarga erisha oladi. Bu esa, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotni texnologik jihatdan yangilanishi, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishi va xalqaro bozorlarda mustahkam o'rin egallashiga zamin yaratadi. Shu bois, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish faqat iqtisodiy emas, balki strategik muhim vazifa sifatida qaralishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyulda "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6102462>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyulda "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-307-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-6102466>
3. Akbarov M.A. Innovatsion tadbirdorlik va iqtisodiy rivojlanish. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2021. – 280 b.
4. To'laganov Sh.Q. Innovatsion faoliyatni iqtisodiy baholash metodologiyasi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020. – 214 b.
5. Yunusov A.M. Innovatsion iqtisodiyotda startap ekotizimining rivojlanish omillari. Monografiya. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2022. – 204 b.
6. Ergashev R.X. Innovatsion faoliyat va uning iqtisodiy tarmoqlaridagi rivojlanish istiqbollari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021. – 188 b.
7. Drucker P. Innovation and Entrepreneurship. – Harper Business, New York, 2006.
8. Yang Li. Innovation as a strategic tool of economic development. – Beijing Economic Journal, 2019, №3.
9. Никонова Я.И., Казаков В.В. Механизм финансового обеспечения инновационной деятельности экономических систем // Вестник Томского государственного университета, 2012, №3. – С. 127–135.
10. Иванов В.К., Образцов И.В., Палюх Б.В. Имплементинг ан эксперт систем то эвалуате технисал солутионс инновативенесс. – Москва: Инновационный центр МГУ, 2021. – 89 с.
11. Глазьев С.Ю. Стратегия опережающего развития России в условиях глобального кризиса. – Москва: Экономика, 2012. – 368 с.
12. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti.
13. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti.
14. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti.
15. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100